

**MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIGA BO'LAJAK PEDAGOG VA  
PSIXOLOGLARINI TAYYORLASHNING ILMIY-ASOSLANGAN JIHATLARI**

**Ashurova Sevara Boynazarovna**

Shahrisabz shahar Maktabgacha ta'lismi tasarrufidagi

12-DMTT tarbiyachisi

**Annotatsiya**

Maqola mazminida bo'lajak tarbiyachi-pedagogning kasbiy qiyofasida aks etishi lozim bo'lgan shaxsiy, kasbiy, komunikativ, pedagogic, tashkilotchilik sifatlari ularning nafaqat o'quv jarayoni vaqtida balki pedagogik amaliyat davrida o'quvchilar bilan o'zaro aloqaga kirishishlarida va atrofdagilar bilan munosabatlarida tarkib topishi haqida asosli fikirlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, psixolog, shaxsiy, kasbiy, komunikativ, tashkilotchilik, sifat, miqdor, asos, izoh.

**Аннотация:**

В содержании статьи даны обоснованные представления об их содержании не только в ходе образовательного процесса, но и в процессе период педагогической практики, когда они взаимодействуют со студентами и в их отношениях с окружающими людьми.

**Ключевые слова:** Педагог, психолог, личностный, профессиональный, коммуникативный, организация, качество, количество, основа, объяснение.

**Annotation:**

In the content of the article, the personal, professional, communicative, pedagogic, organizational qualities that should be reflected in the professional image of the future teacher-pedagogue are given reasonable ideas about their content not only during the educational process, but also during the period of pedagogical practice, when they interact with students and in their relationships with the people around them. .

**Key words:** Pedagogue, psychologist, personal, professional, communicative, organization, quality, quantity, basis, explanation.

So'ngi yillardagi tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki bo'lajak pedagog qiyofasida aks etishi zarur bo'lgan shaxsiy va kasbiy sifatlarni yaxlit majmua tarzida quyidagicha ifodalash mumkinligini ko'rsatadi.

## **1. O‘qituvchining shaxsiy fazilatlari**

- bolalarni yaxshi ko‘rish, ularni sevish;
- amaliy-psixologik aql-farosatilik;
- mehnatsevarlik;
- jamoat ishlarida faollik;
- mehribonlik;
- kamtarlik;
- odamiylik;
- dilkashlik;
- uddaburonlik;
- mustahkam xarakterga ega bo‘lish;
- o‘z bilimini oshirishga intilish va hakozolar.

## **2. Kasbiy fazilatlari**

- ta’lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi;
- psixologiya asoslarini, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi;
- etnopsixologik bilimlarni egallashi;
- hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini va uning metodologiyasini bilishi;
- maktabgacha yoshidagi bolalarning psixologik-pedagogik xususiyatlarini tushunishi;
- o‘z fanini zamonaviy o’qitish metodikasini yaxshi bilishi;
- o‘quvchilarga tarbiyaviy ta’sir etishning samaradorligini bilishi;
- ota-onalar va jamoatchilik bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmunini bilishi va boshqalar.

## **3. Pedagogik sifatlari**

- dars mashg‘ulotlari uchun kerakli materiallarni tanlay bilishi;
- bolalarning bilish faoliyatini boshqara olishi;
- ta’lim va tarbiya jarayonida bolalar ongingin taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalshtira olishi;
- pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalshtirishni bilishi;
- bolalar jamoasiga rahbarlik qilishda o‘z faoliyatini rejalshtirishni bilishi;
- mashg‘ulot maqsadlarini rejalshtira olishi;
- o‘zini ta’lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalshtira olishi;
- milliy an'analar va urf-odatlarning ahamiyatini tushunishi;
- pedagogning kuzatuvchanligi;
- o‘z diqqat-e’tiborini taqsimlay olishi;
- pedagogik fantaziya (xayol)ning rivojlanishi;
- o‘ziga tanqidiy munosabatda bo‘lishi;

- o‘zini qo‘lga ola bilishi, o‘zini tuta olishi;
- pedagogik takt;
- nutqning emotsiunal ifodalanishi va boshqalar.

#### **4. Tashkilotchilik sifatlari**

- bolalar jamoasini uyuştira bilishi;
- turli sharoitlarda bolalar jamoasini boshqara olishi;
- bolalarni mashg’ulotga qiziqtirib, ularni faollashtira olishi;
- amaliy masalalarни hal etishda o‘zining bilim va tajribalarini ustalik bilan tez qo‘llay olishi shu kabilar.

#### **5. Kommunikativ sifatlari**

- bolalarni o‘ziga jalb etishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatni tartibga solishni bilishi;
- bolalararning jamoalararo va jamoa ichidagi o‘zaro munosabatlarini tartibga solishni bilishi;
- bolalar va ota-onalar bilan tashqaridan aloqa bog‘lashni bilishi va hakazolar.

#### **6. Gnostik sifatlari**

- bolalararning asab-psixik taraqqiyoti darajasini aniqlay bilishi;
- o‘zining tajribasi va pedagogik faoliyati natijalarini tanqidiy tahlil qila olishi;
- boshqa pedagoglarning tajribalarini o‘rganib, undan (nazariy va amaliy tomondan) to‘g‘ri xulosa chiqara olishi;
- psixologik va pedagogik adabiyotlardan foydalanishni bilishi;
- bolalarning to‘g‘ri tushunib, ularning xulq-atvori sabablarini tushuntirishni bilishi.

#### **7. Ijodiy sifatlari**

- pedagogik mahoratni takomillashtirishga intilishi;
  - bolalarni tarbiyalash dasturini ishlab chiqish va uni amalga oshirish qobiliyat;
  - o‘zini bola o‘rniga qo‘yib, bo‘lib o‘tgan hodisalarga uning nazari bilan qaray olishi;
  - avvalgi voqeа-hodisalar va tarbiyalanuvchi shaxsiga yangicha qaray olish qobiliyat;
  - o‘zining o‘quvchiga pedagogik ta’sir natijalarini oldindan ko‘ra bilishi.
- Bo’lajak pedagoglarning kasbiy tayyorgarligi mazmuni mazkur ta’lim muassasalari tarbiyachi-pedagoglariga qo‘yiladigan kasbiy-malakaviy talablar doirasida belgilanishi va tashkillashtirilishi talab etiladi. Pedagogik faoliyatini tavsiflashda tarbiyachi-pedagogning kasbiy tayyorgarligida quyidagi komponentlarni farqlanadi.
1. Bilimdonlik (gnostik qobiliyatga egalik).
  2. Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyatiga egalik).

3. Kommunikativlik.

4. Tashkilotchilik.

Bilimdonlik (yunoncha-gnosis bilish) pedagogning bilim sohasiga taalluqli bo‘lib, uning o‘z fanini chuqur bilishi, muloqotchanligi, tarbiyachi-pedagogning psixologik xususiyatlari, o‘zini anglashga doir bilimlarini o‘zida mujassam etishi tushuniladi.

Konstruktivlik (loyihalay olish qobiliyati) – bu pedagogning shaxsiy faoliyati va tarbiya maqsadlarini hisobga olgan holdagi faolliklarini alohida loyihalashtirish nazarda tutiladi.

Kommunikativlik – bu tarbiyachi-pedagogning alohida xususiyati bo‘lib, unda bolalar va hamkasblari bilan o‘zaro hamkorlik muloqoti nazarda tutiladi. Bunda pedagogik faoliyatning samaradorligi uning muloqotchanligiga bog‘liq bo‘ladi. Muloqot didaktik asosga yo‘naltirilgan bo‘lishi lozim. Shu bilan birga bu komponent tarbiyachining bolalar bilan muloqotda bo‘lishiga, o‘quvchilarga yondashish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishga, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashga, pedagogik shaklning mavjudligiga qaratilgan qobiliyat turi hisoblanadi.

Tashkilotchilik – tarbiyachi-pedagogning o‘z shaxsiy faoliyati, shuningdek, bolalar faoliyatini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil eta olish malakalariga egaligi bo‘lib, ta’lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi. O‘qituvchining tashkilotchilik qobiliyatiga egaligi, birinchidan, bolalar jamoasini uyuştira bilish, unda jamoani jipslashtira olish, ikkinchidan, o‘zini shaxsiy ishini to‘g‘ri tashkil qila olishda ko‘rinadi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tish kerakki, bo‘lajak tarbiyachi-pedagogning kasbiy qiyofasida aks etishi lozim bo‘lgan mazkur sifatlar ularning nafaqat o‘quv jarayoni vaqtida balki pedagogik amaliyot davrida o‘quvchilar bilan o‘zaro aloqaga kirishishlarida va atrofdagilar bilan munosabatlarida tarkib topadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. R.A. Mavlonova, N. H. Raxmonqulova, K.O.Matanazarova, M. K. Shirinov S. Hafizov ”Umumiy pedagogika” « Fan va texnologiya» nashriyoti T.: 2018
2. N.N.Azizzxo’jayeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” «O’zbekiston yozuvchilar uyishmasi Adabiyot jamg’armasi» nashriyoti T.: 2006
3. J.G‘.Yo‘ldoshev, M.K.Shirinov, F.I.Ochilov “Pedagogik diagnostika” o‘quv metodik qo’llanma T.:2014
4. O’tkir Tolipov, Dilnoz Ro’ziyeva “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” «Toshkent innovatsiya-ziyo» T.: 2019.